**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
________________
2024 yil “29” ________

# PEDAGOGIK MAHORAT
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60110400-Boshlang‘ich ta’lim |

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi<br>Ped 1804 | O'quv yili<br>2027-2028 | | Semestr<br>8 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus/qozoq/tojik | | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Pedagogik mahorat | | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahorat nazariyasi, didaktikasi va texnologiyalari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iborat. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qitishning individual metodika va texnologiyalari, pedagogik texnika asoslari va pedagogik faoliyat vositalari bilan qurollanadi.

Fanning vazifasi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik mahorat asoslari, nazariyasi, metodologiyasi va texnologiyalari bo'yicha kasbiy kompetensiyasini tarkib toptirishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni o'zlashtiradi, o'zining individual pedagogik texnikasiga ega bo'ladi va kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 -mavzu. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi kasbiy faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati**

Pedagogik mahorat haqida tushuncha va uning mohiyati. Pedagogik mahorat fanining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni.

**2-mavzu. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari**

Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy qarashlar. Yunon faylasuflari va Yevropa olimlari asarlarida o'qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi fikrlari. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish.

**3-mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyatning ahamiyati**

Qobiliyatning pedagogik – psixologik tasnifi. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.

**4-mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kommunikativ qobiliyatning**

| | |
|---|---|
| | **o'rni.**<br>O'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari. Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish.<br><br>**5-mavzu. Kasbiy pedagogik muloqot**<br>O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot tizimi. O'qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarishi. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'nalishlari.<br><br>**6-mavzu. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.**<br>O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri. Muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari.<br><br>**7-mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nizolar va ziddiyatlar.**<br>Pedagogik nizolarning asosiy sabablari. Yosh pedagoglar faoliyatining pedagogik xatolari va ularni tashxislash. Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari.<br><br>**8-mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik nazokat va odob-axloq.**<br>Pedagogik nazokat haqida tushuncha. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyatlari. O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.<br><br>**9-mavzu. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati va uni shakllantirish uslublari**<br>Pedagogik texnika haqida ma'lumot. Pedagogik texnika xususiyatlari. Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi. Pedagogik texnikani egallash mahorati.<br><br>**10-mavzu. O'qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati**<br>Nutqning asosiy xususiyatlari. Til va nutq. O'qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati.<br><br>**11-mavzu: Pedagogik nutq funktsiyalari**<br>Notiqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi. Sharq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida. Nutq texnikasini egallash.<br><br>**12-mavzu: O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati.**<br>Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati. Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish. O'qituvchining ta'lim jarayonida kasbiy omilkorligi. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati |

va darsga tayyorgarligi.

**13-mavzu: Zamonaviy dars kombinatsiyalari.**

Zamonaviy dars. Dars va uning tizimi. Dars – ta'lim jarayonining asosiy shakli. Dars samaradorligini ta'minlovchi omillar

**14-mavzu: O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosidagi faoliyati.**

O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilishi. O'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish. O'qituvchining "axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi

**15-mavzu: O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish**

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mahoratning roli. Obyektiv - shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siri. O'qituvchi mehnati asosida ma'naviy dunyosini va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini takomillashtirish.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik mahorat fani haqida tushuncha. Fanning asosiy vazifalari va tarkibiy qismlari.
2. Pedagogik fikr taraqqiyotida o'qituvchining kasbiy mahorati hamda burch va mas'uliyatlari.
3. O'qituvchi pedagogik qobiliyatining asosiy sifatlari va yetakchi xususiyatlari.
4. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida pedagogik ta'sir ko'rsatish.
5. Pedagogik muloqot – o'qituvchining ijodiy faoliyatini va tashabbuskorligini namoyon etuvchi xususiyat.
6. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati
7. Pedagogik muloqotda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi
8. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish. Pedagogik nizolar va ziddiyatlarni bartaraf etish
9. Hozirgi kunda o'qituvchi tarbiyachilik mahoratining asosiy mohiyati
10. Pedagogik nazokat, va xushmuomalalik, kasbiy pedagogik dilkashlikning o'qituvchi xulq atvorida shakllanishi
11. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. O'qituvchi nutqining to'g'riligi, ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligini oshirish
12. O'qituvchining ta'lim jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablar va o'z ijodiy kayfiyatini boshqarishi
13. O'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish
14. Kompyuter texnologiyalari yordamida o'qituvchilarning kasbiy

malakalarini oshirib boorish

15. Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning boshlang'ich yo'nalishlari

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Sharq allomalarining asarlarida mudarrislar mehnati to'g'risida ilg'or pedagogik fikrlar.
2. Hozirgi kunda o'qituvchilar pedagogik qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari
3. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar
4. Yosh o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda muloqotning ahamiyati
5. Demokratik jamiyatda o'qituvchi va o'quvchi munosabatida erkinlik tushunchasi
6. Pedagogik nizolar va ziddiyatlarning falsafiy, pedagogik- psixologik tasnifi
7. Yosh o'qituvchilarning hushmuomalaligi, nazokati, dilkashligi va pedagogik takti
8. Hozirgi kunda o'qituvchi nutq texnikasi va notiqlik madaniyatini takomillashtirish muammolari
9. Barkamol avlod tarbiyasida o'qituvchining tarbiyaviy maqsadlarni pedagogik mahorat asosida to'g'ri tanlay olishi
10. O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida pedagogik mahoratini oshirib borishi
11. Pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi
12. O'qituvchining kasbiy pedagogik refleksiya asosida o'z pedagogik mahorati imkoniyatlarini takomillashtirishi
13. Hozirgi zamon o'qituvchisi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish muammolari
14. Pedagogik mahorat fani haqida tushuncha. Fanning asosiy vazifalari va tarkibiy qismlari
15. Pedagogik fikr taraqqiyotida o'qituvchining kasbiy mahorati hamda burch va mas'uliyatlari

| | |
|---|---|
| | 16. O'qituvchi pedagogik qobiliyatining asosiy sifatlari va yetakchi xususiyatlari<br>17. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida pedagogik ta'sir ko'rsatish<br>18. Pedagogik muloqot – o'qituvchining ijodiy faoliyatini va tashabbuskorligini namoyon etuvchi xususiyat<br>19. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati<br>20. Pedagogik muloqotda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi<br>21. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish<br>22. Pedagogik nazokat, va xushmuomalalik, kasbiy pedagogik dilkashlikning o'qituvchi xulq atvorida shakllanishi<br>23. Pedagogik nizolar va ziddiyatlarni bartaraf etish.<br>24. Pedagogik texnika va aktyorlikka xos xususiyatlar. Pedagogik texnika va murabbiylik shartlari<br>25. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. O'qituvchi nutqining to'g'riligi, ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligini oshirish<br>26. O'qituvchining ta'lim jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablar va o'z ijodiy kayfiyatini boshqarishi<br>27. Hozirgi kunda o'qituvchi tarbiyachilik mahoratining asosiy mohiyati<br>28. O'qituvchining tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik mahoratning ahamiyati<br>29. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash diagnostikasi. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash<br>30. O'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish |
| 3. | **IV. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik mahorat asoslari, tarkibi, ulardan foydalanish bo'yicha yondashuvlarning nazariy, didaktik va metodologik asoslari bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishi, ulardan foydalanishning zamonaviy yondashuvlarini bilishi, uzluksiz ta'limdagi tendensiyalarning o'ziga xos tajribalar majmui ekanligi bo'yicha **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**<br>- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogic mahoratning nazariy masalalari, ularni o'rganish yondashuvlari, maktabgacha va maktab ta'limi, o'rta maxsus va professional ta'lim, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim hamda oliy pedagogik ta'limda tendensiyalardan foydalanish metodikasi, xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi tendensiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchi faoliyatida ta'lim tendensiyalarining ahamiyati bo'yicha **foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>- uzluksiz ta'limdagi ta'limiy, tarbiyaviy, metodik va texnologik tendensiyalardan foydalanishning an'anaviy, zamonaviy va innovatsion yondashuvlaridan xabardor bo'lishi, pedagogik mahoratni o'rganish bo'yicha individual metodikaga ega bo'lish va o'zning kelgusi faoliyatida ta'lim tendensiyalaridan oqilona foydalanish bo'yicha **malakalarga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** |

| | |
|---|---|
| | • ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Ernazarova G.O., Islamova M. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Malik print Co", 2021. –244 bet.<br>2. Qorayev S.B. Pedagogika. Darslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Zebo print", 2022. –196 bet.<br>3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: "Sano standart", 2017. –416 bet.<br><br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.<br>3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Darslik. – Sankt-Peterburg. 2001<br>4. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009<br>5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T.: 2007.- 305 b.<br>6. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.<br>7. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: "Ўқитувчи", 1996. – 192 б.<br>8. Ортиқов А. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Т.: "Доно ҳамро" илмий маркази, 2002. – 78 б. |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi sayti.<br>www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti.<br>www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti sayti<br>www.ziyonet.uz – O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i<br>www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi<br>www.unilibrary.uz – oliy ta'lim muasssasalarining yagona electron kutubxona axborot tizimi |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "29" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>Nurmatova Shahxnozaxon Shavkatbek qizi – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Sh. Mardonov - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)<br>G.Tojiboyeva – Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). |